



QOZOG‘ISTON TARIXSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR DAVRINING O‘RGANILISHI

Ma‘murova Sarviniso Kamoliddin qizi
Farg‘ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Tarix yo‘nalishi 23- 71 guruh talabasi
[*@sarvinisoma'murova*](mailto:sarvinisoma@murova)

Anotatsiya. Qozog‘iston tarixshunosligida Amir Temur davri doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Amir Temur davri tarixi va uning Dashti Qipchoq hududlaridagi faoliyatining o‘rganilishi tahlil etilgan. XIV- XV asrlar Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoq tarixida muhim davr hisoblanib, bu mintaqada sodir bo‘lgan ijtimoiy -siyosiy iqtisodiy va madaniy jarayonlar bugungi kun tarixshunosligi uchun dolzarb tadqiqot mavzusi bo‘lib qolmoqda, qozoq olimlari tamonidan Amir Temur davri bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari va ularning ilmiy xulosa, yondashuvlari asosida tahlil qilingan va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar Amir Temur, Sharifiddin Ali Yazdiy, K.A. Pishulina, T.I. Sultanov, M.X. Abuseitova, K.M. Baypakov, J.M. Tulibayeva, Otarbayeva Ayna Bolatkiniy, Qozog‘iston, Oltin O‘rda, Movarounnahr, Dashti Qipchoq, arxeologiya, harbiy san‘at, diplomatiya tarixi, metodologiya.

Abstract. The era of Amir Temur has always been one of the most relevant topics in Kazakh historiography. The history of the era of Amir Temur and the study of his activities in the Dashti-Kipchak regions are analyzed. The XIV-XV centuries are considered an important period in the history of Central Asia and the Dashti-Kipchak, and the socio-political, economic and cultural processes that took place in this region remain a relevant research topic for today's historiography. The research conducted by Kazakh scientists on the era of Amir Temur and their scientific conclusions and approaches are analyzed and conclusions are given.

Key words Amir Temur, Sharifiddin Ali Yazdiy, K.A. Pishulina, T.I. Sultanov, M.Kh. Abuseitova, K.M. Baypakov, J.M. Tulibayeva, Otarbayeva Ayna Bolatkiniy, Kazakhstan, Golden Horde, Movarunnahr, Dashti Kipchak, archeology, military art, history of diplomacy, methodology

Аннотация: Эпоха Амира Темура всегда была актуальной темой в казахской историографии. Анализируется история эпохи Амира Темура и изучение его деятельности в регионах Дашти-Кипчака. XIV-XV века считаются важным периодом в истории Средней Азии и Кыпчакской степи, а социально-политические, экономические и культурные процессы, происходившие в этом регионе, остаются актуальной темой

исследования для сегодняшней историографии. Казахские ученые проанализировали и сделали выводы на основе своих исследований эпохи Амира Темура, своих научных выводов и подходов..

Ключевые слова Амир Темур, Шарифиддин Али Яздий, К.А. Пишулина, Т.И. Султанов, М.Х. Абусейтова, К.М. Байпаков, Ю.М. Тулибаева, Отарбаева Айна Болаткина, Казахстан, Золотая Орда, Моваруннахр, Дашти Кыпчак, археология, военное искусство, история дипломатии, методология.

KIRISH

Turon zamini qadimdan tarixiy va siyosiy aloqalari va savdo sotiq masalalarida birdamlikka asoslangan bo‘lib, bu hududda yashagan xalqlar uzoq asrlardan beri mushtarak qadriyatlar va umumiy tarixiy taqdir bilan bog‘langan. Dashti Qipchoq va Movarounnahr kabi yirik hududlar o‘zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo‘lgan. Ushbu tarixiy jarayonlar ichida Amir Temurning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Amir Temur (1336-1405) Markaziy Osiyo tarixida buyuk shaxs va mohir sarkarda sifatida ajralib turadi. Uning siyosiy, harbiy va madaniy faoliyati nafaqat O‘zbekiston, balki qo‘shni Qozog‘iston tarixshunosligida ham alohida o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda Amir Temurning Qozog‘iston hududi bilan bog‘liq faoliyati va uning Dashti Qipchoq bilan aloqalari Qozog‘istonlik va O‘zbekistonlik tarixchilar uchun dolzarb tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sharifidin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari- Amir Temur davlati tarixiga bag‘ishlanib yozilgan asar hisoblanadi. Asar Sharifidin Ali Yazdiy tomonidan Ibrohim Sulton farmoniga ko‘ra 1419 – 1425 yillarda yozilgan[1]. Bu asar Amir Temur davri tarixiga oid muhim manbala bo‘lib, ko‘plab qozoq olimlari Amir Temur davri tarixini yoritishda Sharifiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridan foydalangan holda o‘zining asarlarini yaratishgan. M.X. Abuseitova, K.M. Baypakov kabi olimlar o‘zining asarlarida Sharifiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridan birlamchi manba sifatida foydalanishgan. Amir Temur davri bo‘yicha yana bir muhim manbalardan biri bu Temur tuzuklari – Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan habar beruvchi tarixiy asar hisoblanadi. “Tuzuki Temuriy”, “Tuzukoti Temur”, “Malfuzoti Temuriy” va “Voqioti Temuriy” nomlari bilan ham atalgan. Bu asarda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy siyosiy faoliyati, va uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildiringa qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lgani buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon qilinadi[2].

Amir Temur tarixi davriga oid manbalarda o‘xshash ma’lumotlar uchrashi mumkin, ular bir-biridan davrida, sifatida, yozilish uslubi, dalil – ma’lumotlarning boyligi va boshqa jihatlarida farqlar mavjudligi seziladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

XIV-XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim davr hisoblanadi. Bu davrda mintaqada Amir Temur va Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan. Amir Temurning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va madaniy siyosati nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Dashti Qipchoq hududiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Qozog‘iston tarixshunosligida ko‘proq bu davr alohida o‘rin tutadi.

1. Qozog‘iston tarixshunosligida Amir Temur davri tadqiqotlarining shakllanishi bilan Amir Temur davri tarixi o‘rganilish ishlari boshlanadi. Shu ishlarning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1920-1940 yillar - dastlabki tadqiqotlar davri. Bu davrda asosan arxeologik materiallar va yozma manbalar to‘planishi boshlangan.

1950-1970 yillar - tizimli tadqiqotlar davri. K.A. Pishulina, B.A. Ahmedov kabi olimlar tomonidan Temuriylar davri chuqur o‘rganila boshlangan.

1980-2000-yillar - yangi konseptual yondashuvlar davri. T.I. Sultanov, M.X. Abuseitova singari olimlarning fundamental tadqiqotlari yaratilgan.

2000-yildan keyingi davr - zamonaviy tadqiqotlar. Bu davrda K.M. Baypakov, J.M. Tulibayeva kabi olimlar tomonidan yangi manbalar asosida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Qozog‘iston olimlarining Amir Temur shaxsiyatiga qarashlari M.X. Abuseitova tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Amir Temur davrida mintaqada yangi madaniy markazlar shakllangan va ilm-fan rivojlangan [3]. Temurning tashqi siyosati ko‘p qirrali bo‘lib, u savdo yo‘llarini nazorat qilish va xavfsizlikni ta’minlashga kuchli e’tibor qaratgan edi. Temur davlatida madaniy-ma’naviy hayot yuksak darajada rivojlangan va bu Dashti Qipchoq hududiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temur davrida madaniyat marifat va ilm fan yuksalgan. Amir Temur o‘z hukmronligi davrida Markaziy Osiyo hududidan o‘tuvchi savdo yo‘llari havsizligini taminlaydi [4]. Abuseitovanning Amir Temur davri xususida bergan fikrlari Sharifiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida va Amir Temur davrida yaratilgan manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga muvofiq keladi.

K.M. Baypakov (1940-2018) Temur davrida Janubiy Qozog‘iston shaharlari me’moriy jihatdan yangilangan va kengaytirilganligi va Sauran, O‘tror kabi shaharlar Temur davrida o‘zining ikkinchi yuksalish bosqichini boshdan kechirganligi alohida ta’kidlangan. Temur davrida qurilgan inshootlar yuqori me’moriy mahorat bilan yaratilgan va o‘ziga xos uslubga ega bo‘lganligi to‘g‘risida fikr-mulohazalarni keltirib o‘tgan [5].

Qozog‘iston temurshunoslari orasida Amir Temur shahsiga nisbatan manbalardan farqli yondashuvlar mavjud masalan, M.Otarbayevaning fikrlarida Amir Temur 1336-yil 8-aprelda Samarqand janubidagi hozirgi Shahrisabzda, Movoronnahrning Kesh shahrida tug‘ilgan deb aytilsa, ba’zi tadqiqotlarda, Amir Temur 1333-yil 7-mayda tug‘ilgan deb taxmin qilinishi dalillandi [6]. Granovskiy esa o‘z asarida, Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Samarqandda Chingizxonning o‘g‘li Chag‘atoy qo‘lida tug‘ilganini, uning qo‘li qon, sochlari oq bo‘lib tug‘ilganini aytadi. Uning onasi Chingizxon oilasidan, otasi esa Chag‘atoylar oilasining shahzodalaridan bo‘lgan, lekin unga katta meros qoldirmagan [7] degan fikrlarni keltirib o‘tilgan, ammo manbalar bilan solishtirilganda bu fikrlarning ba’zilari noto‘ri ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Sharifiddin Ali yazdiyning Zafarnoma asrida, “Sha’bon oyining yigirmi beshida, torix yetti yuz o‘ttuz oltida, sichqon yilim (8.04.1336), mo‘gullarning yili bila muvofiq turur, Kashi 18 dilkash viloyatida, Takina Xotunkim, shar’i mutahhara yo’suni bila ul amiri dinparvarning nikohida erdi, andin hazrat Sohibqiron kun kibi zohir bo‘ldi. Va olamafruz mohi burji saodatdip chiqti” [8]. Amir Temurning tug‘ulishi borasida bu olimning bergan fikrlari manbaga muvofiq lekin ba’zi ma’lumotlarda masalan: “Chingizxonning o‘g‘li Chag‘atoy qo‘lida tug‘ilganini, uning qo‘li qon, sochlari oq bo‘lib tug‘ilganini aytadi” Bu so‘zlari manbalardagi fikrlardan farq qiladi. Manbalarda keltirilishicha Amir temur Chingizxon naslidan emas balki barlos urug‘idan bo‘ganligi dalillangan [9].

XULOSA

Qozog‘iston tarixshunosligida Amir Temur davri alohida e’tiborga loyiq va qiziqarli mavzulardan biri hisoblanadi. Bu davr nafaqat Temuriylar imperiyasining va Oltin O‘rdaning harbiy-siyosiy qudrati, balki Ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalari ikki davlat o‘rtasida olib borilgan harbiy yurushlar Qozog‘iston hududiga ta’siri nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Zamonaviy qozoq olimlari bu davrni yangi manbalar va yondashuvlar asosida o‘rganishni davom ettirmoqdalar. Xususan, ular Amir Temurning Qozog‘iston hududidagi harbiy yurishlari, iqtisodiy islohotlari, diniy va ma’naviy merosi xususida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, qadimgi qozoq zaminida qurilgan me’moriy obidalar, va Ahmad Yassaviy maqbarasining qurilishi va uning diniy-ma’naviy ahamiyati ham ilmiy tahlil qilinmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Тузукоти Темурий / Форсчадан таржимон А. Қосимов. - Тошкент: Чулпон, 1996. - Б. 45-62.
2. Казахстан и Центральная Азия в XV-XVII веках: история, политика, дипломатия. — Алматы, 2007. — 469 с.
3. Ибн Арабшох. Ажойиб ал-макдур фи таърих Темур / Форсчадан таржимон С. Ғуломов. - Тошкент: Адолат, 2010. - Б. 78-105.
4. Средневековые города Казахстана на Великом Шелковом пути. - Алматы, 2006. — 616 с.
5. Otarbayeva Ayna Bolatkiniy. “Ўлы қолбасшы Әмір Темір. мақала 1-2b
6. Ибн Арабшох. Ажойиб ал-макдур фи таърих Темур / Форсчадан таржимон С. Ғуломов. - Тошкент: Адолат, 2010. - 256 б.
7. Sharifiddin Ali yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent. 1997. – B. 356.